



O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi Sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati

O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi (keyingi o'rinlarda – "O'zarxiv" agentligi) arxiv ishi va ish yuritish sohasida yagona davlat siyosatini olib boruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

"O'zarxiv" agentligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Agentlik nizomiga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

"O'zarxiv" agentligi sifat menejmenti tizimining siyosati faoliyatini, boshqaruv tizimini hamda xizmat ko'rsatishni samaradorligini oshirishga qaratilgan.

"O'zarxiv" agentligi sifat menejmenti tizimi sohasida quyidagi vazifalarni o'ziga maqsad qilib oladi:

- samarali kadrlar tizimini yaratish;
- xodimlarning malakasini va kasbiy o'sishini oshirish;
- zamonaviy texnologiyalar va tahlil usullari asosida arxiv ishi faoliyatini yanada takomillashtirish;
- xavflarni aniqlash, monitoring tizimini joriy etish orqali ularni yo'q qilish yoki minimallashtirish;
- iste'molchilar va manfaatdor tomonlarning qoniqishini oshirish;
- xodimlarning moddiy ahvolini, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash.

Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun "O'zarxiv" agentligi yuqori rahbariyati va xodimlari o'z zimmlariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

- tashkilot faoliyatini takomillashtirish vositasi bo'lgan ISO 9001:2015 talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda yaxshilab borish;
- sifat menejmenti tizimi faoliyatining natijasiga rahbariyat va xodimlarning javobgarligi;
- "O'zarxiv" agentligi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va mavjudligi;
- maqsad va vazifalarga erishish uchun zarur bo'lgan barcha turdagi resurslarni ajratish;
- sifat menejmenti tizimi siyosatining maqsadlarini xodimlar va manfaatdor tomonlarga yetkazish;
- "O'zarxiv" agentligi faoliyati doirasida qo'llaniladigan qonun hujjatlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning talablarini bajarish;
- ta'minotchilar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni yaxshilash.

"O'zarxiv" agentligi rahbariyati yuqorida keltirilgan majburiyatlarni amalga oshirish yo'lida xodimlarning tashabbuskorliklarini qo'llab-quvvatlaydi va kerakli resurslarni ajratadi hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish yo'li bilan ularning qanoatlanganligini oshirish uchun sharoit yaratadi.

Mazkur siyosatni agentlikning barcha xodimlariga yetkazilishi, maqsadlarning to'liq tushunilishga erishilishi va faoliyatdan kelib chiqqan holda ushbu siyosatni muvofiqligini tahlil qilib borish ta'minlanadi.

Direktor



U. M. Yusupov

2022-yil 20-sentabr